
Jarayon

Jahon bankining Xalqaro taraqqiyot uyushmasi va Osiyo infratuzilmaviy investisiyalar banki ishtirokida “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq Qo‘shtepa tumanidagi Baland masjid mahallasining infratuzilmasini yaxshilash maqsadida 7.5 milliard so‘m mablag‘ ajratilgan.



Xususan, ushbu mahallada ichimlik suvi ta'minotini yaxshilashga 4.302 million so'm mablag' ajratilgan bo'lib, loyiha doirasida 12.8 kilometr toza ichimlik suvi ta'minoti tortish hamda 1 ta suv minorasi o'rnatish, mavjud 1 ta suv minorasini rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Ayni kunlarda "Trent 6" MCHJ tomonidan qizg'in ish olib

borilmoqda.

2023-02-13 11:41:29